



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI

«Huquqshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanidan

REFERAT

MAVZU: HUQUQIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISH-ZAMON TALABI .



Topshirdi:

Umarov S

Qabul qildi:

A. Mirzaxmedov

Reja:

KIRISH.

HUQUQIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISH-ZAMON TALABI.

1.1. Siyosiy mustaqilliksiz davlat mustaqilligiga erishib bo'lmaydi.

1.2. Huquqiy davlatning asosiy belgilari.

II.BOB. KUCHLI HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISH JAMIYATNING ASOSIY MAQSADI.

2.1.Davlat, huquq, va shaxs.

2.2.Xalq hokimiyati rejimini ta'minlashda huquqning o'rni.

XULOSA.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatning siyosiy mustaqilligi, avvalambor, o'zining yaxlit hududiy daxlsiz chegarasiga egaligi va o'sha mamlakat roziligisiz chegara va hududni o'zgartirib bo'lmasligidir. Mamlakat mustaqilligi xalq xohish-irodasi - referendum orqali amalga oshiriladi. Bu mamlakat xalqining o'z vakillari orqali davlatni boshqarishini anglatadi. Mamlakat Prezidenti shu mamlakat xalqi hayoti, mamlakat taraqqiyoti uchun eng mas'ul yagona yuridik shaxs hisoblanadi. Bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan har qanday rahbar o'zining davlat dasturiga ega bo'lishi kerak. I.A.Karimov ana shunday dasturga ega. U respublika xalqining istiqoldan so'ng taqdirini belgilab beruvchi taraqqiyot yo'lini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bera oldi. U prezident sifatida har qanday og'ir sharoitga qaramay dadil, O'zbekistonni mustaqil yo'ldan yetaklab bormoqda. Mamlakat taraqqiyoti qabul qilingan qonun va bu qonunlar ijrosini ta'minlashga bog'liq. Qonunlar qanchalik xalq maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etsa va u uzluksiz amalga oshirib borilsa, xalqning davlatdan roziligi vujudga keladi. O'zbekiston Konstitutsiyasida va Oliy Majlis tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, amalga oshirilmoqda. Ikki palatali Oliy Majlis qonunlari xalq manfaatiga asoslangandir.

Mavzuning maqsadi. O'zbekiston bugungi kunda to'la siyosiy mustaqillikka erishgan mamlakat. U hech kimdan kam bo'lmagan davlatchilik tajribasiga ega. U o'z tajribalariga suyangan holda, dunyo davlatlarining ilg'or taraqqiyotini o'rgangan bir davlat sifatida o'zi belgilab olgan rivojlangan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish yo'lidan dadil odimlamoqda. Davlatimiz o'zining milliy qo'shinlariga ega.

Siyosiy mustaqil davlat mustaqil ravishda chet davlatlar bilan aloqa qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Bugungi O'zbekiston ana shunday imkoniyatga ega. Bir paytlar sobiq sovetlar uni dunyodan uzib qo'ygan bo'lsa, istiqoldan so'ng O'zbekiston teng manfaatlar asosida dunyo davlatlari bilan barcha sohalar bo'yicha hamkorlikni boshlab yubordi. Uning bugungi taraqqiyotida rivojlangan davlatlar tajribasining o'rni kattadir.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek, "Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad,

printsip va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"².

O'zbekiston bugungi kunda o'zi tanlab olgan taraqqiyot yo'lida ildamlab borayotgan mustaqil mamlakatdir. O'zbekiston taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishimizga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni o'zi hal etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Milliy-ma'naviy tiklanish yo'lidagi harakatlarni xalqimiz to'g'ri tushunib, tanlab olgan taraqqiyot va yuksalish yo'limizni ongli ravishda qabul qildi.

Mavzuning vazifasi. Jamiyat bugungi kunda dunyo mamlakatlarida demokratik jamiyatga ideal jamiyat sifatida qaralmoqda. Uni vujudga keltirish uchun faollik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i «model»lari yo'q va u bo'lishi ham mumkin emas. Chunki har bir mamlakat na faqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlariga ega va biri ikkinchisidan farqlanadi, o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi. Unga harakat qilish nafaqat hech qanday samara beribgina qolmasdan, balki og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqlagan. SHuning bilan birga **demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan: 1) siyosiy tizimni isloh qilish, 2) bozor munosabatlarini shakllantirish, 3) insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, 4) jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash** va boshqa bir qator qonuniyatlari barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ammo umumiy qonuniyatlari barcha mamlakatlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda demokratik jamiyatga o'tishni inkor etmaydi. Aksincha, o'tish davrida mavjud bo'ladigan muammolarning ma'no-mazmunini teran anglagan holda, ularni sobitqadamlik bilan hal qilish imkonini beradi.

Prezident Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" (1992) asarida jahon taraqqiyoti tajribasida rivojlangan demokratik davlatlar demokratik jamiyat qurishda quyidagi 4 ta muhim masalaga e'tibor berganliklarini ta'kidlab o'tgan: 1. Demokratiya va qonunchilikni yo'lga qo'ygan. 2. Mulkchilikning turli shakllarini barpo etib, bozor xo'jaligi iqtisodiyotidan borgan. 3. Yuksak ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirgan. 4. Jahon hamjamiyatiga kirib borgan. Prezident aytganidek, **«O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu-insonparvarlik qoidalariga**

² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir// Xalq so'zi, 2010 yil 8 dekabr, № 236 (5151).

asoslangan, millati, dini ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir».

Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi, birinchidan, o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, umumbashariy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadigan, insonparvarlik koidalarini tan olgan demokratik davlatdir. Ikkinchidan, fuqarolar osoyishtaligi va milliy totuvlikni ta'minlashni o'zi uchun maqsad qilib qo'ygan tinchliksevar davlatdir. Uchinchidan, o'zbek xalqining boy ijtimoiy-ma'naviy merosiga, milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlari, milliy urf-odat, udum va an'analariga tayanib ish tutadigan insonparvar davlatdir. To'rtinchidan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini chuqur anglab va his qilib faol ichki va tashqi siyosat olib borayotgan davlatdir. Hozirgi paytda O'zbekistonda qaror topayotgan davlat - bu demokratik huquqiy davlatdir.

I.BOB. HUQUQIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISH-ZAMONTALABI.

1.1. Siyosiy mustaqilliksiz davlat mustaqilligiga erishib bo'lmaydi.

Davlat mustaqilligi avvalambor, uning siyosiy mustaqilligidan boshlanadi. Siyosiy mustaqilliksiz davlat mustaqilligiga erishib bo'lmaydi. Xo'sh, davlat mustaqilligining siyosiy belgilari nimalardan iborat?

Mamlakatning siyosiy mustaqilligi, avvalambor, o'zining yaxlit hududiy daxlsiz chegarasiga egaligi va o'sha mamlakat roziligisiz chegara va hududni o'zgartirib bo'lmasligidir. Mamlakat mustaqilligi xalq xohish-irodasi - referendum orqali amalga oshiriladi. Bu mamlakat xalqining o'z vakillari orqali davlatni boshqarishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida (1991 yil, 31 avgust) uchta tarixiy hujjatning qabul qilinishi uning siyosiy mustaqilligini anglatadi.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Mamlakat taqdirida muhim ahamiyat kasb etadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasi chaqirildi. Sessiyada respublika mustaqilligi to'g'risida Prezident Islom Karimov ma'ruza qildi. U O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qilishni taklif etdi. Demak, ana shu sessiyada 3 ta tarixiy hujjat qabul qilindi: (29-betga qarang).

Ushbu tarixiy hujjatlarga ko'ra, 1 sentyabr - respublika mustaqilligi kuni umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Xalqning asriy orzulari amalga oshdi, u o'z taqdirini o'zi hal qiladigan bo'ldi. O'z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, otabobolari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch-qudratning to'la huquqli egasiga aylandi. O'z buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, ajdodlarining ajoyib urf-odatlarini insonparvar an'alarining davomchisi, o'z porloq kelajagining mustaqil ijodkoriga aylandi.

Demak, O'zbekistonning butun tarixi xalqning mustaqillik uchun doimiy va tinimsiz intilishidan guvohlik beradi. Milliy-ozodlik harakatlari, XIX asr oxirlari va XX asrning 30-yillarigacha bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar buning yaqqol ko'rinishlari deyish mumkin. Ular qanday tarixiy saboqlar va bahonalar asosida kelib chiqqan bo'lmasin, qanday shiorlar asosida o'tkazilmasin, xalqning barcha harakatlari asosida mustaqillik va erkinlikka intilish mavjud edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi shu yerda yashovchi barcha xalqning hohish-irodasi va davrning ob'ektiv tarixiy qonuniyatlariga mos keladi. Yevropada ham, Osiyoda ham o'z davrida bir qator imperiyalar juda katta kuch-qudratga ega

edilar. Biroq ularning hammasi xalqning milliy-ozodlik va mustaqillik uchun kurashlari natijasida quladi. XX asrda tezkor va keng qamrovli xususiyat kasb etdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'pchilik xalqlari esa o'z davlat mustaqilligiga, istiqlol va erkinlikka erishdilar. SHu ma'noda imperialistik davlat bo'lgan SSSRning parchalanishi tarixiy taraqqiyotning muqarrar va qonuniy natijasi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligi 2007 yil 30 avgustda nishonlanar ekan, bu mustaqillik zaminida xalqimizning asrlar davomida olib borgan qonli kurashlari turibdi. Mustaqillik bizga nima berdi deyish mumkin, mustaqillik bizga erkinlik berdi. Prezident iborasi bilan aytganda «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi».

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu masala hal etildi. 1991 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan saylovlar haqqoniy tarzda o'tkazilib, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ko'pchilik ovoz bilan saylandi. Mamlakatni boshqaruv hokimiyati dunyodagi davlatlar tajribasiga suyangan holda va xalq manfaatlaridan kelib chiqib oliy qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati sifatida tashkil etildi.

Mamlakat Prezidenti shu mamlakat xalqi hayoti, mamlakat taraqqiyoti uchun eng mas'ul yagona yuridik shaxs hisoblanadi. Bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan har qanday rahbar o'zining davlat dasturiga ega bo'lishi kerak. I.A.Karimov ana shunday dasturga ega. U respublika xalqining istiqoldan so'ng taqdirini belgilab beruvchi taraqqiyot yo'lini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bera oldi. U prezident sifatida har qanday og'ir sharoitga qaramay dadil, O'zbekistonni mustaqil yo'ldan yetaklab bormoqda. 2.1-CHizma

Siyosiy mustaqillikning asosiy belgilari
--

Davlat hokimiyatiga, davlat muassasalariga so'zsiz ega bo'lish
--

Har bir xalq, har bir millat o'zini-o'zi idora etishi, o'z taqdirini o'z xohishi bilan hal etishi

Davlat chegarasi hududining daxlsizligi va bo'linmasligi
--

O'z Konstitutsiyasiga, fuqarolariga, tiliga, milliy puliga, davlat ramzlariga ega bo'lishi
--

Mamlakat taraqqiyoti qabul qilingan qonun va bu qonunlar ijrosini ta'minlashga bog'liq. Qonunlar qanchalik xalq maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etsa va u uzluksiz amalga oshirib borilsa, xalqning davlatdan roziligi vujudga keladi. O'zbekiston Konstitutsiyasida va Oliy Majlis tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, amalga oshirilmoqda. Ikki palatali Oliy Majlis qonunlari xalq manfaatiga asoslangandir.

Davlatning siyosiy belgilaridan biri uning davlat ramzlaridir.

Davlat ramzlari - Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (5-modda), bayroq, gerb va madhiya hisoblanadi. O'zbekiston Davlat ramzlari:

1) Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbi va madhiyasi.

a) Davlat bayrog'i - 1991 yil 18 noyabrda qabul qilindi.

b) Davlat gerbi - 1992 yil 2 iyulda qabul qilindi.

v) Davlat madhiyasi - 1992 yil 10 dekabrda qabul qilindi.

2) Mustaqil O'zbekiston davlatining nomi Konstitutsiyamizning 1-moddasida «Davlatning O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'no anglatadi» deb yozib qo'yilgan. «O'zR» yoki «RU» deb yozish kerak, deyiladi.

3) Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabrda qabul kilingan).

4) O'zbekiston Respublikasining davlat tili - 1989 yil 21 oktyabrda qabul kilingan va Konstitutsiyaning 4-moddasida tasdiqlangan.

5) Mustaqil davlat poytaxti - Toshkent shahri. Konstitutsiyamizning 6-moddasida bayon etilgan.

6) Mustaqil davlat fuqaroligi Konstitutsiyaning 21-moddasida aytilganidek, fuqarolik har qanday davlatning ajralmas belgisidir.

7) Davlat mukofotlari va unvonlari (1997 yil noyabrgacha 30 ta O'zbekiston Respublikasi faxriy unvoni ta'sis etilgan).

8) Milliy valyuta. 1994 yil 16 iyunda qabul kilingan «O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Prezident Farmoni, 1994 yil 1 iyuldan «So'm» muomalaga kiritildi.

9) Umumxalq bayramlari va boshqalar.

1.2. Huquqiy davlatning asosiy belgilari.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari - bu davlatni mustaqil davlat sifatida e'tirof etish uchun sabab bo'ladigan tushunchalardir. Mustaqil davlat bo'lish uchun har bir davlatning o'z hududi, Konstitutsiyasi, aholisi (xalqi), davlat ramzlari, fuqaroligi, armiyasi, oliy hokimiyat organlari, pul birligi bo'lishi zarur. Demak, davlatning asosiy ramz-belgilari quyidagilardan iborat:

1. O'ziga xos ommaviy hokimiyatning-davlat (ijtimoiy) hokimiyatning ta'sis etilganligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi.

2. Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashini bildiradi. Yoki boshqacha aytganda, fuqarolarning hududiy jihatdan bo'linganligi.

3. Suverenitetligi (fran. oliyligi), ya'ni ichki va tashqi siyosat yuritishda mustaqil bo'lish.

4. Huquq ijodkorligi, ya'ni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirligi.

5. Davlat apparatining saqlanishi va ta'minlanishi hamda aholining kam ta'minlangan qismiga yordam berish uchun soliqlar solinishi.

6. Umuminsoniy funktsiyalarni (vazifalarni) bajarish, ya'ni hududni qo'riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiy farovonlik maqsadlarini amalga oshirish uchun qurolli kuchlar va boshqa majburlovchi organlarning mavjudligi. Bu maxsus davlat organlariga: Mudofaa tizimi, Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar xizmati, Prokuratura, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Bojxona xizmati va hokazolar kiradi.

7. Konstitutsiya, davlat ramzlari va fuqarolik maqomining mavjudligi.

Milliy-ma'naviy tiklanishni ta'minlab beruvchi asosiy omillardan biri har bir millatning o'z ona tiliga bo'lgan munosabatidir. Qaramlik va mustamlakachilik yillarida ko'plab millatlar singari o'zbek xalqi ham o'z ona tilini unutayotgan xalqlardan biriga aylanib qolayotgan edi. Ona tilimiz asrlar davomida shakllanib keldi va jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangandi. Til har bir xalqning, millatning hayoti uchun muhim bo'lib, u o'zlikni anglash, milliy ong, milliy tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi. O'z ona tiliga ega bo'lmagan millatning o'zi bo'lmaydi. Xalqimiz tarixida ko'plab buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, ma'rifatparvarlarimiz

tilimiz ravnaqi uchun kurashib keldilar. Buyuk alloma A.Navoiy turkiy tilda “Xamsa” yozib bu tilning boy til ekanligini, bu tilda ham katta-katta asarlar yozish mumkin ekanligini isbotlab berdi. Har bir millatning ona tili- bu o’sha millatning ruhi, mamlakat mustaqilligi ramzidir.

Prezident I.A.Karimov milliy-ma’naviyatimiz ko’zgusi bo’lgan ona tilimiz ravnaqi uchun sa’y-harakatlar qilgan kishilardan biri. U milliy tilimiz ravnaqi uchun kurashgan ma’rifatparvar bobolarimizdan biri hisoblangan A. Avloniyning til to’g’risidagi so’zlarini keltirib, “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida shunday deydi: “Har bir millatning dunyoda borligini ko’rsatadgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur”¹. Milliy tilni davlat tili maqomiga ko’tarish osonlik bilan amalga oshirilmaydi, ona tilini saqlab qolishga intilish millatparvarlikdir, ma’naviyatli insonlargina til ravnaqi haqida qayg’ura oladilar. Qaramlik yillarida ona tili ravnaqi uchun kurashgan kishilar millatchi sifatida ayblanardi, shuning uchun mamlakatimizda mustaqillik sari intilar ekanmiz, bu masala ko’plarni tashvishga solib qo’ydi. Mustaqillikning ilk qadami sifatida Oliy Kengash qoshida maxsus maslahat kengashi tashkil etilib, 1989 yil 21 oktyabrda “O’zbekiston SSRning Davlat tili haqida” Qonuni qabul qilindi.

Har bir mustaqil davlat o’z davlat tiliga ega bo’lishi kerak. Davlat tili shu mamlakat tub aholisi manfaatleri, tarixidan kelib chiqib belgilanadi. O’zbekistonda aholining 72 foizidan ortig’ini o’zbeklar tashkil etgani bois, bu xalq azaldan ana shu hududda istiqomat qilib kelganligi va boy madaniy, ma’naviy boyliklar egasi ekanligi uchun o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Mustaqillik tufayli sobiq sovetlar davrida “mayda xalq” deb yerga urilgan millat va uning ona tilining nufuzi oshdi.

Til to’g’risida qabul qilingan qonun milliy - ma’naviy tiklanish yo’lida qo’yilgan qadamlardan biri bo’ldi. Katta tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan ushbu qonun yurtimizda istiqomat qilayotgan ko’plab millatlar va elatlarning tillarini rivojlantirish imkonlarini yaratib berdi, ko’plab millatlar o’z ona tilida muloqot qilish, bilim olish imkoniyatlariga ega bo’ldi. Mazkur qonun sobiq sovet tuzumi davrida davom etgan boshqa millatlar ona tiliga bo’lgan tazyiqlarga barham berish imkoniyatini yaratib berdi. 1992 yilda qabul qilingan amaldagi Konstitutsiyamiz 4-moddasida esa davlat tili maqomini huquqiy jihatdan mustahkamladi¹.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 83-b.

¹ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston, 2010. – 4-b.

Ona tili ravnaqi milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida katta rol o'ynaganligi uchun ham mustaqillik yillarida davlat tilining milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi rolini oshirish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

I.A.Karimov tilimiz ravnaqi haqida gapirar ekanlar, “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch” asarida shunday fikrlarni bildirib o'tadilar. “Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”².

Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonini milliy tillarning ravnaqsiz tasavvur etib bo'lmaydi, ushbu maqsad yo'lida tariximizda ma'rifatparvar ziyolilarimiz tomonidan bir qator harakatlar bo'lib o'tgan, lekin ularning bunday harakatlari sobiq sovet tuzumi olib borgan siyosat oqibatida o'z natijasini ko'rsata olmagan edi.

Milliy-ma'naviy tiklanish jarayoni iqtisodiy-moliyaviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham, ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirishga o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti doimo o'zaro uyg'unlikda bo'lib kelgan. Insonning kundalik hayotida, uning butun umri davomidagi faoliyatida ma'naviy yuksalishning asosiy omillaridan biri moddiy asos ekanligi tarixiy jarayonlarda o'zini isbotlab berdi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy-ma'naviy tiklanishga erishish maqsadida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligini kuchaytirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda, bu bog'liqlikni kuchaytirish tarixiy zaruriyatdir. Ushbu tarixiy haqiqat haqida Prezident I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch” nomli asarida shunday fikrlarni ilgari suradi: “Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un ravishda rivojlanib borishini doimo davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markaziga qo'yib kelmoqdamiz”¹.

O'zbekiston bugungi kunda to'la siyosiy mustaqillikka erishgan mamlakat. U hech kimdan kam bo'lmagan davlatchilik tajribasiga ega. U o'z tajribalariga suyangan holda, dunyo davlatlarining ilg'or taraqqiyotini o'rgangan bir davlat sifatida o'zi belgilab olgan rivojlangan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish yo'lidan dadil odimlamoqda. Davlatimiz o'zining milliy qo'shinlariga ega.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 87-b.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 69-bet.

II.BOB. KUCHLI HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISH JAMIYATNING ASOSIY MAQSADI.

2.1.Davlat, huquq, va shaxs.

Siyosiy mustaqil davlat mustaqil ravishda chet davlatlar bilan aloqa qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Bugungi O'zbekiston ana shunday imkoniyatga ega. Bir paytlar sobiq sovetlar uni dunyodan uzib qo'ygan bo'lsa, istiqoldan so'ng O'zbekiston teng manfaatlar asosida dunyo davlatlari bilan barcha sohalar bo'yicha hamkorlikni boshlab yubordi. Uning bugungi taraqqiyotida rivojlangan davlatlar tajribasining o'rni kattadir.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek, "Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, printsip va normalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"².

O'zbekiston bugungi kunda o'zi tanlab olgan taraqqiyot yo'lida ildamlab borayotgan mustaqil mamlakatdir. O'zbekiston taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishimizga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni o'zi hal etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Milliy-ma'naviy tiklanish yo'lidagi harakatlarni xalqimiz to'g'ri tushunib, tanlab olgan taraqqiyot va yuksalish yo'limizni ongli ravishda qabul qildi.

SHu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, sobiq sovet davlati, totalitar tuzum allaqachon qulagan bo'lsa-da, globallashuv jarayonida Markaziy Osiyoda o'z ta'sir kuchini kuchaytirishga, xalqimizni ma'naviy, mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilib olishga, turli xil usullar orqali O'zbekistonga ma'naviy tazyiq o'tkazib, o'ziga itoat ettirishga intilayotgan kuchlar yo'q emas.

CHunki shunday tabiiy resurslarga boy, jannatmakon, Markaziy Osiyoning yuragi hisoblanmish O'zbekiston o'zining go'zalligi bilan aholisining tinchtotuvligi, osoyishtaligi bilan hali ham dunyoni o'ziga maftun etib kelayotgan

² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir// Xalq so'zi, 2010 yil 8 dekabr, № 236 (5151).

mamlakat. Uning xalqi o'sha chetdagi yovuz va alamzada ko'zlarning g'ayir maqsadini allaqachon anglab yetgan. O'z yurtini saqlash va uning kelgusi taraqqiyotini yomon ko'zlardan asrash uchun sidqidildan ijodiy jo'shqin mehnatlar bilan yashamoqda. Bu xalqning maqsadi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaslik va o'z yurtida demokratik jarayonlarni davom ettirib, har tomonlama rivojlangan, farovon hayotni barpo etishdir.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimidagi tabrik so'zida ta'kidlanganidek, "Bizning eng ezgu maqsad-muddaomiz – dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirishdan iboratdir. Buning uchun e'tibor markazimizda turishi zarur.

Birinchi, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy-ijtimoiy o'sishimiz va texnologik rivojlanishimiz sur'atlarini yuksaltirish hisobidan Vatanimiz taraqqiyoti va aholimiz farovonligini munosib darajaga ko'tarishdir.

Ikkinchi, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishni, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilashni, yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishdir¹. **Demokratik jamiyatda** eng avvalo siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, davlat boshqaruvi hokimiyat xalqning bevosita yoki bilvosita ishtirokida va omma davlat uchun emas, aksincha davlat omma uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida amalga oshadi va shu ma'noda ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatning barcha sohalarida tub o'zgarish ishlarining amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda **siyosiy sohada** davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi. Uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob bera oladigan mexanizmlar shakllantirilib boriladi. Bu borada 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi Prezident Islom Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da 2010-2016 yillargacha mamlakatni isloh etish va demokratlashtirish yangi bosqichining 6 ta ustuvor vazifalarini belgilab berdi². Ular:

1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.
2. Sud-huquq tizimini isloh etish.

¹ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi// Xalq so'zi, 2010 yil 1 sentyabr, № 171.

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 56.

3. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash.

4. Oʻzbekistonda saylo huquqi erkinligini taʼminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish.

5. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.

6. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

Iqtisodiy sohada esa, bozor munosabatlari qaror topadi. Taraqqiyotda ommaning oʻz moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir boʻladi. Maʼnaviy-maʼrifiy sohada inson omili, uning qadr-qimmati yuksak qadriyat darajasiga koʻtariladi. SHunday jarayonlar tufayli jamiyatning yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi.

Jamiyat bugungi kunda dunyo mamlakatlarida demokratik jamiyatga ideal jamiyat sifatida qaralmoqda. Uni vujudga keltirish uchun faollik koʻrsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga oʻtishning barcha mamlakatlar uchun yagona boʻlgan aniq andozalari, yana ham aniqrogʻi «model»lari yoʻq va u boʻlishi ham mumkin emas. CHunki har bir mamlakat na faqat oʻzining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlariga ega va biri ikkinchisidan farqlanadi, oʻz xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib boʻlmaydi. Unga harakat qilish nafaqat hech qanday samara beribgina qolmasdan, balki ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqlagan. SHuning bilan birga **demokratik jamiyatga oʻtishning barcha mamlakatlar uchun umumiy boʻlgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan: 1) siyosiy tizimni isloh qilish, 2) bozor munosabatlarini shakllantirish, 3) insonning oʻz ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, 4) jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini taʼminlash** va boshqa bir qator qonuniyatlar barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ammo umumiy qonuniyatlar barcha mamlakatlarning oʻziga xosligini hisobga olgan holda demokratik jamiyatga oʻtishni inkor etmaydi. Aksincha, oʻtish davrida mavjud boʻladigan muammolarning maʼno-mazmunini teran anglagan holda, ularni sobitqadamlik bilan hal qilish imkonini beradi.

Prezident Islom Karimov “Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” (1992) asarida jahon taraqqiyoti tajribasida rivojlangan demokratik davlatlar demokratik jamiyat qurishda quyidagi 4 ta muhim masalaga eʼtibor berganliklarini taʼkidlab oʻtgan: 1. Demokratiya va qonunchilikni yoʻlga qoʻygan. 2. Mulkchilikning turli shakllarini barpo etib, bozor xoʻjaligi iqtisodiyotidan borgan. 3. Yuksak maʼnaviyat va madaniyatni rivojlantirgan. 4. Jahon hamjamiyatiga kirib borgan.

Demokratik davlat tushunchasi - bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari turli-tuman yo'llar orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratadi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti, sog'lig'i har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash choralarini doimiy ravishda ko'rib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida va ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'ppartiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi.

Milliy-ma'naviy tiklanishning asoslaridan biri mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda sobiq sovetlar davri totalitar siyosati tufayli uzilib qolgan milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, moddiy va ma'naviy boyliklari mizga qayta egalik qilish bo'ldi. Milliy ma'naviy tiklanishni amalga oshirishda demokratik tamoyillar asosida yondashildi. Demokratik tamoyillar bu xalq manfaatlari, maqsad, orzularini ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Demokratik tamoyillar O'zbekiston hududida azaldan SHarq mentaliteti negizida amal qilgan. Sobiq sovetlar davrini hisobga olmaganda, davlatchilik tariximizda har doim demokratiyaga amal qilib ish yuritilgan.

Demokratik davlat sifatida O'zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etishga kirishdi.

Fuqarolik jamiyati - erkinlik, ozodlik, tenglik, ijtimoiy adolat jamiyatidir. Inson manfaatini himoya qilish, turmush farovonligini ta'minlash, uning qobiliyati, talanti va iqtidorini ro'yobga chiqarish, niyatlari, orzu-armonlarini amalga oshirish uning oliy maqsadidir. Fuqarolik jamiyati insonparvar jamiyat bo'lib, O'zbekiston hududida yashayotgan, o'zini shu vatanning munosib farzandi deb tan olgan, irqi, e'tiqodi, jinsi va millatidan qat'i nazar barcha xalq vakillarini qo'llab-quvvatlaydi, ularning har tomonlama taraqqiy etishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi hamda ularni himoya qiladi. Prezident aytganidek, **«O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu-insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir»**.

Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi, birinchidan, o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, umumbashariy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadigan, insonparvarlik koidalarini tan olgan demokratik davlatdir. Ikkinchidan, fuqarolar osoyishtaligi va milliy totuvlikni ta'minlashni o'zi uchun

maqsad qilib qo'ygan tinchliksevar davlatdir. Uchinchidan, o'zbek xalqining boy ijtimoiy-ma'naviy merosiga, milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlarini, milliy urf-odat, udum va an'analariga tayanib ish tutadigan insonparvar davlatdir. To'rtinchidan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini chuqur anglab va his qilib faol ichki va tashqi siyosat olib borayotgan davlatdir. Hozirgi paytda O'zbekistonda qaror topayotgan davlat - bu demokratik huquqiy davlatdir.

Huquqiy davlat shaklan davlatning o'tmishdagi tarixiy tiplariga o'xshasa-da, o'zining mazmuni, tub mohiyati, keng xalq ommasi maqsad va manfaatlarini o'zida chuqur aks ettirishi, ijtimoiy bazasining keng va turli-tumanligi, qanday ijtimoiy kuchlarga tayanishi, fuqarolar oldidagi burchi va mas'uliyatining nihoyatda kattaligi va boshqa fazilat hamda xususiyatlariga ko'ra huquqiy bo'lmagan davlatlardan keskin farq qiladi¹.

Huquqiy davlat - davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi bilan belgilanadi. Bunda huquqning hukmronligi, qonun ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linish printsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) Xalq hokimiyatining amalga oshishi.
- 2) Huquqning hukmronligi. Ya'ni, shaxs huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi.
- 3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.
- 4) Hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili.
- 5) Sud mustaqilligi.
- 6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
- 7) Davlat va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati.
- 8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.
- 9) Huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi.
- 10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

¹ Qarang: Azizxo'jaev A., Husanov O., Azizov X. Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug'at. T.: «Akademiya», 2001, 37-38, 140-bet; Saidov A., Tadjixonov U. Davlat va huquq asoslari. Toshkent: O'zR IIVA, 1999, 20-bet.

Huquqiy davlatning barcha uchun umumiy bo'lgan andozasi yo'q. Uni har bir davlat milliy davlatchilik borasida tajribalariga tayanib, xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va an'analarini hisobga olib, o'z strategik maqsadlariga mos holda shakllantiradi. Lekin huquqiy davlatchilikning dunyo tan olgan va umumbashariy qoida-talablariga javob beradigan yuqoridagi 10 ta tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asosi. Ular bizning Konstitutsiyamizda to'liq aks etgan.

O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni qaror toptirish uchun jamiyatni demokratlashtirish zarur. Bunda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, 1) an'anaviy mezonga e'tibor berish va u bilan hisoblashish lozim. 2) Avval mamlakat aholisi turmushini yuksaltirish darkor. Chunki turmush ongni belgilaydi. 3) Fuqarolar ongi, tafakkurini o'zgartirish kerak. Turmushning yuksalishi o'z navbatida odamlar ongi va tafakkur tarzini o'zgartirishga olib keladi. 4) Huquqiy demokratik jamiyatga tabiiy yo'sinda, hech zo'riqish va talofatsiz erishishimiz mumkin. «Odamlar siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur»¹.

Dunyoda mavjud davlatlar bir-biridan juda ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Bu farqlar bilan bir qatorda ularning o'xshash tomonlari ham ko'p. Mana shu o'xshash tomonlari, ya'ni umumiy xususiyatlariga asoslanib davlatlarni tasniflash mumkin.

Davlatning huquqqa bo'lgan munosabatiga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Etatik;
2. Huquqiy davlat.

Etatik davlatda:

1. qonun o'rnini ko'pincha qat'iy buyruq va farmoyishlar egallaydi;
2. davlat o'z fuqarolari siyosiy birlashmalari va tashkilotlarining erkinliklarini qat'iy cheklab qo'yadi;
3. davlat iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni va hatto fuqarolarning shaxsiy hayotini ham o'z boshqaruvi ta'siriga olishga intiladi;
4. davlat organlari va mansabdor shaxslariga haddan tashqari ko'p vakolatlar beriladi.

Etatik davlatga misol qilib Kuba, sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin. SHuningdek, barcha totalitar va avtoritar tuzumdagi davlatlar ham bunga misol bo'la oladi.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8 - T.: O'zbekiston, 2000, 333-bet.

Huquqiy davlatda davlat boshqaruvi huquqning ustuvorligiga asoslanadi. Bunda davlat boshqaruvi fuqarolar va ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Huquqiy davlat - huquqning ustuvorligi hamda sud mustaqilligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, davlat hokimiyati vakolatlar bo'linishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilar:

1. **Huquqning ustuvorligi.**

Mamlakatdagi barcha shaxslar — fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaro bo'lmagan shaxslar, hammasi qonun talablariga bo'ysunadilar. Bunda, Konstitutsiya huquqiy normalar tizimida oliy yuridik kuchga egadir.

2. **Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi va himoyalaniishi.**

Inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat ekanligi.

3. **Davlat va fuqaroning bir-birlari oldida o'zaro mas'uliyati.**

4. **Hokimiyatning qonuniyligi.**

Hokimiyat demokratik saylovlar bilan shakllantiriladi. Davlat hokimiyati mamlakatning ichkarisida va xalqaro miqyosda tan olinadi.

5. **Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi.**

Davlat hokimiyati: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linadi. Davlat hokimiyati vakolatlari mana shu uchala hokimiyat o'rtasida taqsimlanadi.

6. **Sudning mustaqilligi.**

Sudning faoliyatiga hech kim aralasha olmaydi. Sudlar faqat qonun talablariga bo'ysunadi.

7. **Huquqni muhofaza qilish mexanizmining samarali ishlashi.**

Davlat inson huquq va erkinliklarini lozim darajada himoya qilishi kerak;

8. **Yuqori darajadagi huquqiy madaniyat.**

Huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarni bilish, ularni hurmat qilish va ularga rioya qilishda namoyon bo'ladi.

9. **Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.**

Xalq davlat boshqaruvida qatnashadi, siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanadi.

Davlatning uchinchi **oraliq turi** ham mavjud bo'lib, u ushbu ikkala davlat xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradilar. Bu davlatlarning ba'zilari o'z xususiyati, tabiati va yo'nalishi bo'yicha etatik davlatlarga. Ba'zilari esa huquqiy davlatga yaqin tursalarda, ayrim jihatlari bilan farqlanadilar.

2.2.Xalq hkimiyati rejimini ta'minlashda huquqning o'rni.

Bizda bozor iqtisodi tamoyillariga asoslanib tashkil topayotgan ochiq, erkin, adolatli, demokratik davlat xalqimiz hayotiga zo'ravonlik bilan joriy etilgan sobiq sovet davlatidan tamomila farq qiladi. SHo'ro davlatining shakli va mohiyati xalqimizning axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga to'g'ri kelmasdi. Oldingi, Sobiq Sovet davlati o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o'z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi. SHu boisdan ham u davlat bilan xalq manfaati o'rtasida muvofiqlik yo'q edi.

Bu haqda gapirib, Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: "El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. SHunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz"². Mana shunday holatlarga yana qaytmaslik uchun milliy madaniyatimiz, xalqimizning asrlar mobaynida to'plab kelingan ma'naviy boyligi ildizlariga jiddiy e'tibor berish zarurdir.

Hozir O'zbekistonda mavjud davlatchiligimiz buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga, o'tmishdagi boy an'analarimizga asoslanganligi va boshqa muhim xususiyatlariga ko'ra boshqa davlatlardan ajralib turadi.

Ushbu davlat, birinchidan, Turkiston xalqlari davlatchiligining bir necha ming yillik tarixi va uning qadimiy an'analariga asoslanayotgan bo'lsa, ikkinchidan, jahon xalqlarining ilg'or demokratik g'oyalari va boy tajribalariga suyanmoqda. Zero, Turkiston xalqlarining, xususan, uning ajralmas bir qismi bo'lgan o'zbeklarning madaniyati va davlatchiligi tarixi juda boy va qadimiydir.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 4-b.

Uning tarixiy ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Turkiston-insoniyat tsivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biri bo'lib, u qadimgi Xitoy, Hindiston, Bobil tsivilizatsiyalariga tengdosh-tengqur ekanligini aytmasdan o'tib bo'lmaydi.

Yurtimizning qadimgi davrlardanoq ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat markazi bo'lib kelganligi, allomalarimiz, buyuk tarixiy shaxslarimiz dunyoda o'ziga yarasha o'ringa ega ekanligi to'g'risida I.A.Karimov shunday deydi. "Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat SHarq, balki jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy tsivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi"¹.

Tarixiy manbalarda dunyodagi eng kadimiy tsivilizatsiyalardan biri Turkistonda paydo bo'lganligi va rivojlanganligi aytib o'tilgan. Yer yuzida madaniy taraqqiyot yo'lga kirgan o'lkalar barmoq bilan sanarli darajada oz bo'lgan davrlarda turkistonliklarning avlod-ajdodlari Zardusht dinining asosiy manbai - «Avesto» kitobini bundan qariyb 3 ming yil muqaddam yozib, jamiyatni muayyan qonun-qoidalar asosida boshqarish, do'stlik, hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro ahillikda yashashni uqtirganlar. Prezident bu haqda o'zining "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida ta'kidlab o'tganidek, "otabobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan. "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi"².

Avlod-ajdodlarimiz neolit davridayok yovvoyi hayvonlar-qoramollarni xonakilashtirib, chorva madaniyatini yaratdi. O'troq mehnat bilan kun kechirib, dehqonchilik madaniyatini dunyoga keltirganlar. O'nlab kilometr ga cho'zilgan ulkan kanallar qazib, to'g'onlar qurib, hovuz va sardobalar yaratib, chig'iriqlar o'rnatib, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning o'sishiga imkoniyat yaratganlar, tabiatni o'zlashtirib, bog'-bo'stonlar bunyod etdilar. Paxta ekish, undan mo'l hosil olish, paxta tolasidan mahsulot olish madaniyati Turon zaminida

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 31-b.

² O'sha asar, 31-b.

massagetlar, sug'dlar, parfiyanlar, parkanaliklar va boshqalar turmushida miloddan avvalgi asrlardayoq shakllana boshlagan.

Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylarda yashagan avlod-ajdodlarimiz-hozirgi Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi ota-bobolari ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq ovchilik va baliqchilik, keyinchalik esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Bundan 4 ming yil burun yirik shaharlar, mustahkam qo'rg'onlar va istehkomlar paydo bo'lgan. Maroqand (Samarqand), Kiropolb (hozirgi O'ratepa), Toshkent, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlar qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo'lgan. O'tgan asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha bo'lgan hududlar bilan aloqa bog'lagan.

Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona va Parfiyada eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi, keyinchalik Yunon yozuvi va forsiy mixxat, oromiy yozuvi negizida asta-sekin Avesto, xorazm, so'g'd, kushon, urxun-enasoy, uyg'ur yozuvi va boshqa yozuvlar vujudga kela boshladi. **«Yozuvning vujudga kelishi tufayli, birinchidan, hayot tajribalari va bilimlarni avloddan avlodga o'tkazish imkoniyati kengaydi, ikkinchidan, muomala vositasi sifatida tilning ijtimoiy makon va zamon doirasidagi imkoniyati kuchaydi, uchinchidan, yozuv tufayli ma'naviyatni rivojlantirish va targ'ib qilishda salohiyatli ishlar boshlanib ketdi, to'rtinchidan, yozuv vujudga kelishi bilan qo'lyozma yaratish, kitob chop etish kabi ishlar avj oldi».**

Xalqimiz ma'naviyati qadimgi va boy ekanligini isbotlab beruvchi omillardan biri xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining namunalarida insonning ma'naviy kamoloti uchun zarur bo'lgan, ularni komil insonlar sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi fazilatlar ulug'lanadi. Mustamlakachilarning xalqimiz ma'naviy merosini talon-taroj qilish siyosatidan **xalq og'zaki ijodi** ham katta zarar ko'rdi.

Xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalari, hatto "Alpomish" dostoni ham millatchilik ruhiyatini o'zida aks ettirgan asar deb qoralanib kelingan. Ziyolilarimizning harakatlari, mustaqillik tufayli "Alpomish" dostoni yo'qolib ketish xavfidan saqlab qolindi.

Haqiqatan ham, "bir paytlar, aniqrog'i, o'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko'pgina namunalari kabi, "Alpomish" dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda

fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga mufavvaq bo'lganliklarini bugun minnatdorchilik bilan eslaymiz.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz "Alpomish" dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot"¹.

Turonda diniy madaniyat va ma'naviyat bilan bir qatorda dunyoviy ilm-matematika, astronomiya, jug'rofiya, falsafa, tibbiyot, tarix fanlar uyg'un rivojlangan. Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotganligini eng qadimgi milliy bayram Navro'z ayyomi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Navro'z bayrami yangilanish va ezgulik timsoli bo'lib, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgan.

Ma'naviy yuksalishning yana bir mezoni **muqaddas dinimiz** azaldan yuksak ideallar, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarni o'zida mujassamlashtiradi. Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'ioniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband singari buyuk mutafakkir va allomalar islom madaniyatini yanada ravnaq toptirishga ulkan hissa qo'shganlar. SHu boisdan ham nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferentsiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi-AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani uning yana bir tasdig'idir.

Zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgan. Ahmad Farg'oniy esa fundamental fan asoschilaridan biri bo'lib, "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomli asari bilan, Abu Rayhon Beruniy (XI asr "Beruniy asri") qomusiy tafakkur sohibi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida tibbiyot darsligi bo'lib kelmoqda. O'lkamizda musiqa asboblari yaratilgan, kalendar taqvim ixtiro qilingan.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 33-b.

«Bayt-ul hikma» deb atalgan ilmiy muassasada 500dan ortiq vatandoshimiz - buyuk mutafakkirlar faoliyat ko'rsatib, Turon madaniyati va ma'naviyatini buyuk madaniyatga aylantirganlar ham Turon farzandlaridir.

Ko'rinib turganidek, nasl-nasabimiz juda qadimiy bo'lib, uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Eng qadimiy tarixiy yodgorliklarda, yunon, xitoy, hind va arman tarixchilarining kitoblarida, Avesto, Behistun, Yuundaxshin, Urxun-enasoy bitiklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshaxiy, Rabg'uziy kabi buyuk allomalarning asarlarida bu haqda ko'pgina qimmatli materiallar va ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Turkistonliklarning tarixi uzoq moziyga borib taqalishini buyuk bobomiz Amir Temur alohida ta'kidlab, «Bizning ajdodimiz Abul Turk Yofasning o'g'li, Nuhning nabirasi va turklarning buyuk xoni edi», deb yozgandi o'zining «Tarjimai hol»ida.

Amir Temur boshqa bir joyda o'zining yuqoridagi fikrini yana davom ettirib va unga yangi mazmun berib:

«Bizkim-Mulki Turon,

Amiri Turkiston biz.

Biz kim-millatlarning

Eng qadimi va ulug'

Turkning bosh bo'g'ini biz».

degandi.

“SHu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, - degan edi Prezident Islom Karimov, - Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. CHunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi”¹.

Amir Temur aytganidek, millatlarning eng qadimgisi va ulug'i, bosh bo'g'ini hisoblanmish turkistonliklar bundan bir necha ming yillar ilgari Markaziy Osiyodan to Egey va Atlantika dengizigacha, ulardan Tinch okeani sohillarigacha,

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 44-45-betlar.

SHimoliy muz okeanidan to Hind okeani sohillarigacha bo'lgan yerlarda yashagan. O'sha hududlardagi ko'plab joylar hanuz turkiy nomlar bilan atalib kelinmokda.

Tarixda avlod-ajdodlarimiz o'zini-o'zi mustaqil boshqargan, o'z taqdirini birovlarining izmi va irodasisiz hal etgan, o'z arkoni davlati yoki davlatlariga ega bo'lib, davlat boshqaruvining o'ziga xos usullari, qonun-qoidalarini yaratgan paytlar juda ko'p bo'lgan.

Qadimiy Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida So'g'd, Parfiya, Taxoriston, Baqtriya, CHag'oniyon, Xorazm, SHosh, Farg'ona, somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va boshqa ko'plab davlatlar bo'lib, jahon madaniyatini rivojlantirishda katta iz qoldirishgan.

Mustaqillik xalqimiz uchun shunday katta tarixiy voqea bo'ldiki, u bizga milliyligimizni tiklash, tariximizni haqqoniy o'rganish, milliy-ma'naviy tiklanishga erishish, qadriyatlarimizni tiklash, dunyoda xech kimdan kam bo'lmagan xalqqa aylanish imkoniyatlarini yaratib berdi. Biz bugungi kunda o'tmishimizdan g'ururlanadigan xalqqa aylanib bormoqdamiz.

Biz ajdodlarimiz tarixini haqqoniy o'rganar ekanmiz, ular tomonidan qoldirilgan ma'naviy merosni avaylab-asrab, ularni yanada boyitar ekanmiz, dunyoda o'z o'rnini topib olayotgan yuksak ma'naviyatli millatga aylanamiz.

Milliy-ma'naviy tiklanishga erishishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri jamiyat a'zolarining ma'naviy kamolotga erishish imkonlarini yanada oshirish, ularni ijtimoiy faollashtirishdir. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishga bo'layotgan intilishlar ham, insonni qadrlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar ham milliy-ma'naviy tiklanish zaminlaridan hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati, avvalambor, ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatidir.

Fuqarolik jamiyati - insonning yalpi huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan jamiyat tuzilishidir. Bunda har bir fuqaro, jumladan, O'zbekiston fuqarosi o'z ixtiyori bilan fuqarolikdan chiqishi mumkin. Fuqarolikdan chiqmoqchi bo'lganlar oldiga ma'lum shartlar qo'yiladi, ya'ni ular davlat, jamoa, fuqarolar oldida hech qanday majburiyati, qarzdor yoki davlat va harbiy sirlardan voqif bo'lmasligi kerak. Agar fuqarolikdan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, u fuqarolikdan vaqtincha chiqarilmaydi. Quyidagi hollarda O'zbekiston fuqarosi fuqaroligini yo'qotadi:

1) CHet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati idoralariga ishga kirsas.

2) CHet elda yashovchi O'zbekiston fuqarosi 5 yil davomida uzrli sababsiz konsullik hisobida turmasa.

3) Fuqarolikni soxta hujjatlar taqdim etib olgan bo'lsa.

Fuqarolikdan chiqarish O'zbekiston Prezidenti vakolatiga kiradi.

Fuqarolik jamiyati - demak, haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati-mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim.

Fuqarolik jamiyati bag'rida shakllanadigan huquqiy davlatchilikning asosiy shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1.Iqtisodiy shart-sharoitlar: mustaqil ishlab chiqaruvchi, mustaqil iste'molchi (xaridor), erkin fuqarolardan iborat.

2.Siyosiy shart-sharoitlar: huquqiy davlat, o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining siyosiy ifodasidir.

3.Ma'naviy asosga ko'ra ma'naviy hayot sohasidagi umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi iborasi fuqarolik jamiyatining bosh xususiyatini juda yaxshi ifodalaydi.

4.Huquqiy asos. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida huquq nafaqat iqtisodiy va siyosiy hukmron sinf irodasini, balki o'z davrining qat'iy insonparvarlik talablari, uning axloqiy intilishlarini ham ifodalaydi.

O'zbekiston "Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari" kontseptsiyasini ishlab chiqdi va uni izchillik bilan amalga oshirmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning quyi organi bo'lgan mahallaning huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning mahalliy quyi organi bo'lgan mahallaning avvalo huquqiy asoslari quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1."O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" (aynan 21-bob, 105-moddada u o'z ifodasini topgan).

2.1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun.

3.1999 yil 14-15 aprelda Oliy Majlis tomonidan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri uning asosiy maqsad va vazifalari hamda ijtimoiy mohiyatini ifoda qilib bergan.

2002 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasida Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, hayotimizni erkinlashtirish yo'llaridan yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruvi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishini ta'minlaydi.

2004 yil 29 aprelda «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

2008 yil 30 sentyabrda O'zR Oliy Majlisi Senati Kengashining «Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. 1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'sha yili 17 oktyabrda «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 480-sonli qarori qabul qilindi.

1992 yili Respublikamizda 10 mingga yaqin, Toshkentda 279 mahalla mavjud edi. 1993-1994 yillarda mamlakatimizda 12 mingdan ortiq mahalla qo'mitalari tuzildi. 2009 yilga kelib O'zbekistonda 10 ming 118 tadan ortiq, Toshkent shahrida esa 474 dan ko'proq mahalla faoliyat yurita boshladi.

2011 yil may-iyun oylarida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va uning maslahatchilari saylovi o'tkazildi. «Oila-mahalla-maktab» kontseptsiyasi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. Bu boshqa davlatlarda uchramaydigan noyob dasturdir.

Yurtimizda siyosiy, millatlararo ijtimoiy va moddiy tenglikni ta'minlovchi samarali tizimga asoslangan, qonunlarga tayangan fuqarolik jamiyatini yaratish «Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasi orqali amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish O'zbekiston tanlab olgan yo'lining asosiy maqsadi bo'lib, barcha islohotlar, barcha chora-tadbirlar, jamiyat tizimlari shunga yo'naltirilgan. Mamlakatda bozor munosabatlari sharoitida o'z-o'zini boshqarish keng yo'lga qo'yildi. Bunda odamlarga erkinlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratib berildiki, odamlar o'z hayotlarini erkin ravishda

o'zlari bunyod etishga kirishdilar. O'zlari istagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqdalar. Iqtisodiy sohami, siyosiy yoki ma'naviy sohadami, har bir inson o'z qobiliyati, o'z iqtidoriga yarasha faoliyat bilan band. Ammo bu ko'ngilga kelganini qilish, davlat, xalq manfaatlariga zid ish bilan shug'ullanish, degani emas. Xalq tinchligi va osoyishtaligini saqlash, xalq kelajagini himoya qilish qonun bilan cheklab qo'yilgan.

XULOSA.

Huquqiy davlatning barcha uchun umumiy bo'lgan andozasi yo'q. Uni har bir davlat milliy davlatchilik borasida tajribalariga tayanib, xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va an'analarini hisobga olib, o'z strategik maqsadlariga mos holda shakllantiradi. Lekin huquqiy davlatchilikning dunyo tan olgan va umumbashariy qoida-talablariga javob beradigan yuqoridagi 10 ta tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asosi. Ular bizning Konstitutsiyamizda to'liq aks etgan.

O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni qaror toptirish uchun jamiyatni demokratlashtirish zarur. Bunda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, 1) an'anaviy mezonga e'tibor berish va u bilan hisoblashish lozim. 2) Avval mamlakat aholisi turmushini yuksaltirish darkor. Chunki turmush ongni belgilaydi. 3) Fuqarolar ongi, tafakkurini o'zgartirish kerak. Turmushning yuksalishi o'z navbatida odamlar ongi va tafakkur tarzini o'zgartirishga olib keladi. 4) Huquqiy demokratik jamiyatga tabiiy yo'sinda, hech zo'riqish va talofatsiz erishishimiz mumkin. «Odamlar siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur»¹.

Yurtimizda siyosiy, millatlararo ijtimoiy va moddiy tenglikni ta'minlovchi samarali tizimga asoslangan, qonunlarga tayangan fuqarolik jamiyatini yaratish "Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari" kontseptsiyasi orqali amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish O'zbekiston tanlab olgan yo'lining asosiy maqsadi bo'lib, barcha islohotlar, barcha chora-tadbirlar, jamiyat tizimlari shunga yo'naltirilgan. Mamlakatda bozor munosabatlari sharoitida o'z-o'zini boshqarish keng yo'lga qo'yildi. Bunda odamlarga erkinlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratib berildiki, odamlar o'z hayotlarini erkin ravishda o'zlari bunyod etishga kirishdilar. O'zlari istagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqdalar. Iqtisodiy sohami, siyosiy yoki ma'naviy sohadami, har bir inson o'z qobiliyati, o'z iqtidoriga yarasha faoliyat bilan band. Ammo bu ko'ngilga kelganini qilish, davlat, xalq manfaatlariga zid ish bilan shug'ullanish, degani emas. Xalq tinchligi va osoyishtaligini saqlash, xalq kelajagini himoya qilish qonun bilan cheklab qo'yilgan.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8 - T.: O'zbekiston, 2000, 333-bet.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
2. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: «O'zbekiston», 2000.
5. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: «O'zbekiston», 2001.
6. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «O'zbekiston», 2002.
7. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Asarlar, 11-jild. –T.: «O'zbekiston», 2003.
8. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Asarlar, 12-jild. –T.: «O'zbekiston», 2004.
9. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar, 13-jild. –T.: «O'zbekiston», 2005.
10. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.
11. Karimov I. A. Asosiy vazifamiz vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston»- 2010.
12. Ibroximov Abduqaxxor. Bizkim o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari xaqida muloxazalar. – T., «SHarq», 1999 y.
13. G'oya va mafkura. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
14. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
15. Bunyodkor g'oyalar. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
16. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
17. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
18. Politologiya. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir prof. I. Ergashev. –T.: «O'AJBNT» Markazi, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002